

**O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISHDA ARXELOGIYA FANIDAGI  
TADQIQOTLARNING AHAMIYATI**

**Turg'unov Sherzod Abduvositovich**

Namangan davlat universiteti Arxeologiya kafedrasи erkin  
izlanuvchisi  
Tel; 97 592 86 84 emal; turgunovs979@gmail.com.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston tarixini o'rganishda Arxeologiya fanini va shuningdek arxeologik tadqiqotlarni ilmiy ahamiyati olib berilgan. O'zbekiston tarixiga oid muhim ma'lumotlarni aniqlashda mamlakatimizda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning tutgan o'rni batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Arxeologiya, THAT, Teshiktosh , Ko'lbulok, Arxeologiya fanini rivojlantirish Konsepsiysi va boshqalar.

**ЗНАЧЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ПРЕДМЕТА АРХЕОЛОГИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ  
ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

**Тургунов Шерзод Абдувоситович**

Магистрант 2-курса Наманганского государственного университета  
кафедрә Археология

Тел : 97 592 86 84 email: turgunovs 979 @ gmail com.

**Аннотации:** В данной статье раскрыто научное значение предмета Археология, а также археологические исследования при изучении истории Узбекистана. Подробно освещено значение проведенных в стране археологических исследований при уточнении важных сведений, имеющих отношение к истории Узбекистана.

**Ключевые слова:** Археология , Туркестанский археологический любительский кружок, Тешикташ, Колбулак , Концепция развития предмета Археология и другие.

**THE IMPORTANSE OF ARCHEOLOGICAL RESEARCH IN THE STUDY OF THE  
HISTORY OF UZBEKISTAN**

**Turgunov Sherzod Abduvositovich**

Department of Archeology Namangan state university 2 nd stage  
master

Tel phonee; 97 592 8684 turgunovs979@ gmail.com.

**Annotation:** The article reveals the scientific significance of archeology and archeological research in the study of the history of Uzbekistan.

The role of archeological research in our country in determining the important information on the history of Uzbekistan is described in detail.

**Key words:** Archeology , THAT, Teshiktosh, Ko'lbulak, concept of development of archeological science and (etc) others

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab xalqimizning qadimgi o'tmishi, shonli tarixini, ajdodlarimiz qoldirgan nodir madaniy merojni ilmiy o'rganishga katta e'tibor qaratildi.O'zbekiston Respublikasi 1- prezidenti Islom Karimov 1998 – yilda respublikaning bir guruh yetakchi tarixchi olimlari va arxeologlar bilan uchrashuv va ushbu uchrashuv natijasi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish" to'g'risidagi Qarori, "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institute faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlar istiqbolda tarixchilar va arxeologlar tamonidan amalga oshiriladigan tadqiqotlarga dasturamal bo'lib hizmat qildi {1}. Mazkur qarorlar asosida qabul qilingan" Arxeologiya fanini rivojlantirish Konsepsiysi" da O'zbekistonning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasi erishilgan arxeologik kashfiyotlar orqali asoslangan. Shuningdek ushbu konsepsiya istiqibolli vazifa sifatida qadimgi davrdan boshlab Temuriylar davrigacha o'zbek davlatchiligi va sivilizatsiyasining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini asosiy hususiyatlari, davriy chegaralari, taraqqiyot va inqiroz davrlari ularni o'rganishning asosiy yo'na;lishlari belgilangan. Konsepsiya yaratilgan kundan bugungi kunga qadar o'zbek arxeologiyasi asosiy bosh maqsadi xalqimizning o'tmishi haqidagi haqqoni manzarani yaratish, uning eng qadimgi davridan bugungi kungacha bo'lgan boy tarixini jahon tarixidan ajratmagan holda unga qarama qarshi qo'yagan holda o'rganish, Sharq va G'arb o'rtasidagi muloqotlarga katta xizmat qilgan o'zbek xalqining jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini ko'rsatish va Markaziy Osiyo xalqlarini madaniyati va davlatchilik taraqqiyotiga ajdodlarimizni xizmatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Dastavval yurtimizda Arxeologiya fanini rivojlanish tarixiga to'xtalib o'tamiz. Yurtimizda podsho Rossiysi bosqiniga qadar ham nodir buyumlar va kitoblar tangalar to'plovchilar mavjud bo'lganligi tarixdan ma'lum . Bu lar mahalliy aholidan chiqqan havaskor o'lkashunoslar bo'lishgan .

Anashunday havaskorlardan biri Akrom Asqarov edi. Mashhur rus sharqashunosi va tarixchisi N.I.Vasilovskiy olib borgan tadqiqotlarda Akrom Asqarovx shahsan qatnashgan. Shuningdek ana shunday havaskorlardan biri Mirzo Abdulla Buxoriy edi. Mahalliy havaskor numizmat – hattot Abu Said Maxsum bo'lib uning Samarcand shahrining qadimiy obidalarini chizmalaridan N.I.Vasilovskiy, V.A.Krachkovskaya, A.A.Semyonovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida unumli foydalangan. Rus arxeologi V.L.Vyatkinga Ulug'bek rasadxonasi o'rnini Abu Said Maxsum ko'rsatgan bo'lib u buni XVI asrga oid vaqf hujjatlarini o'rganish asnosida aniqlagan. Demak hech ikkalanmay u yoki bu yodgorlikni topish usulini ham birinchilardan bo'lib o'zbek ziyolilari ixtiro qilgan desak xato bo'lmaydi. Yuqorilardan ko'rindik , bizda boshlangan arxeologik tadqiqotlar avvalida mahalliy aholi vakillaridan choiqsan ziyoli, o'lkashunos,o'z xalqini tarixini o'rganishni orzu qilgan havaskorlar turadi.

Turkiston Podsho Rossiyasi tamonidan zabit etilganidan keyin o'lkaga nafaqat harbiylar, boshqaruva ma'muriyati vakillari balki ular bilan bir qatorda rus sharqshunoslari, turkshunoslari, arxeolog olimlari ham tashrif buyurdilar. Bularga misol qilib mashhur rus sharqshunos, arxeolog olimi N.I. Vasilovskiy, V.V.Bartold, M.S.Andreev,A.A.Divayev,N.S.Likoshin, N.P.Ostromovlarni keltirish mumkin. Mashhur rus arxeologi V.V .Bartoldning tashabbusi bilan 1895 yilda Toshkent shahrida Turkiston Arxeologlar Havaskorlar to'garagi (THAT) tashkil etildi. Bu to'garak a'zolari turli kasb egalaridan iborat bo'lib, ularning orasida hukumat vakillarini ham, harbiylarni ham ,ta'lim muassasalari direktorlarini , o'qituvchilarini o'lkating qadimiy tarixiga qiziquvchi geograf, sharqshunoslari shuningdek mahalliy havaskor kolleksionerlar, tarixchilarni uchratamiz. To'garak a'zolari tamonidan o'lkadagi arxeologik yodgorliklar va numizmatik topilmalar ro'yhatga olindi, arxeologik xarita tuzish uchun ma'lumotlar to'plandi, dastlabki arxeologik qazishmalar olib borilgan. Turkiston Arxeologlar Havaskorlar to'garagi faoliyatini o'gangan rus olimi B.V.Lukoshinning fikricha "togarak o'lkadagi arxeolgik tadqiqotlarni boshlab berib O'rta Osiyon o'tmisht tarixi haqidagi bilimlarni shakllanishida o'ziga hos iz qoldiridi. To'garak a'zolari tamonidan amalga oshirilgan arxeologik yodgorliklar, turli tarixiy buyumlarni ro'yhatga olish ishlari haqidagi ma'lumotlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'q'otmagan" {2}. O'tgan asrning 30- yillarda arxeologlar olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'zbekiston tarixiga umuman olganda O'rta Osiyo tarixiga oid muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Bu davrda A.P.Okladnikov, M.P.Gryaznov, S.P.Tolstov,A.Y.Yakuboskiy,V.A.Shishkin kabi olimlarning tadqiqotlari tufayli juda muhim arxeologik yangiliklar

yaratildi. Masalan S.P.Tolstov boshchilik qilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining Quyi Amudaryo oqimida joylashgan yirik sug'orish inshootlarini va shaharlar xarobalarini tadqiq etish jarayonida S.P.Tolstov antik tarixda O'rta Osiyoda ham quldarlarlik tuzumi mavjud bo'lganligi lekin yunon quldarligidan farq qiluvchi jamoa ko'rinishida bo'lganligi haqidagi xulosani bergen .

A.P.Okladnikovni O'zbekiston SSRning janubida olib borgan arxeologik tadqiqotlari olamshumul natijaga olib keldi. 1938 yilda Surxondaryoning Boysun tog'larida olib borgan arxeologik qazishma ishlari natijasida Teshiktosh g'oridan o'rta paleolit davriga oid qabr topildi. Qabrni qazish jarayonida 9 yoshli neandertal odam sukalri topildi. Teshiktosh g'oridan nenadertal odam suyak lari tolishi nafaqat O'zbeliston tarixida bakli jahon tarixida muhim voqeа bo'ldi , sababi bu davrda fashistalr Germaniyasi tamonidan irqchilik go'yalari avj oldirilgan bir vaziyatda bu topilma nemis fashizmini irqchilik g'oyalariga berilgan ilmiy zarba bo'ldi.

XX asrning 40 yillaridan boshlab arxologiya faniga mahalliy mutahasislar kirib kela boshladi."Birinchi qaldirg'och" vazifasini o'tgan Yahyo G'ulomovning bosib o'tgan yo'li , ilmiy tadqiqot ishlari juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Yahyo G'ulomovning ilmiy faoliyatida O'zbekiston tarixi va arxeologiyasini uchta yo'nalishdagi muammolarini o'rganish turgan.Bular; 1) O'zbekistonning qadimgi tarixidan bugungi kungacha bo'lgan sug'orish tarixini o'rganish.2) O'zbekistonning urug' jamoasi tuzumi arxeologiyasi va tarixi 3) O'rta Osiyoning eng qadimgi davrdan oktabr davlat to'ntarishigacha bo'lgan tarixini o'rganish.

Ushbu ilmiy muammolarni hal qilish uchun Yahyo G'ulomov respublikamizning katta qismida faoliyat olib borgan , bir nechta yirik arxeologik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan.Bu ekspeditsiyalar natijasida Xorazm sivilizatsiyasining asosiy tamal toshi bo'lgan irrigatsiya tarmoqlarini o'rganish, neolit davriga oid Darvozai Qir , Eneolit va bronza davriga oid Zamonbobo yodgorligi, Zarafshon va Qashqadaryo havzasidagi tosh davri yodgorliklari, Jizzaxning shimoli-g'arbiy qismidagi majusiyalar tosh qurbongohi, Toshkent vohasidagi Obi-rahmat , Farg'ona vosiysidagi paleolit, mezolit, neolit, bronza davriga oid arxeologi yodgorliklar va mashhur Quva Buddaviylar ibodatxonasi ochilishi kabi muhim kashfiyotlar barchasi Yahyo G'ulomov ilmiy faoliyati bilan bo'g'liq {3}.

Yahyo G'ulomovning say- harakati bilan 1950-1970 -yillarda tarixchi va arxeologlarni o'ziga hos "G'ulomov maktabi" shakllandi.Ushbu matabning vakillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademiklari; A.Asqarov, A.Muhammadjonov, O'.Islomov,Yu .Buryakovlar,

professorlar; M.Qosimov, A.Anarboyev, T.Mirsoatov, A.Abdulhamidov, fan nomzodlari; I.Ahrorov, O'.Alimovlar O'zbekistonda tarix va arxeologiya fanlariga katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularning ilmiy faoliyatları hukumat tamonidan munosib taqdirlanib 1985 yilda akademiklar A.Asqarov, Yu.Buryakovlar fan va texnika sohasidagi Beruniy Davlat mukofoti bilan mukofatlandilar.

Milliy istiqlol yillarda arxeolgiya fanida olib borilgan tadqiqotlarning Samarqand, Buxoro ,Qarshi ,Xiva,Shahrisabz, Toshkent kabi qadimiy shaharlarni muborak tarixiy sanalarini rasman aniqlashda xizmatlari beqiyos bo'ldi.Ushbu shaharlarni yubileyлari YUNESKO homiyligida o'tkazilishi so'ngi 20 yil davomida mamlakatimizda olib borilgan arxeologik izlanishlar naqadar serqirra va sermahsul bo'lganligidan dalolat beradi.Mustaqillik yillarda nafaqat mahalliy arxeologlar balki chet ellik arxeologlarning olib borgan arxeologik tadqiqotlari ham yurtimizning qadimiy tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Surxon vohasida bronza davrini o'rganishda Philipp Koll(AQSh), Ditrix Xufer, Kay Kanut( GFR), ilk temir davriga oid yodgorliklarni o'rgangan N.Barofka (GFR) , Vu Xin (XXR) , antik davr arxeologiyasi bilan shug'ullangan Per Lershi, Klod Ralen(Fransiya) , Kato Khodzo (Yaponiya), Ladislav Stango( Chexiya) larning olib borgan tadqiqotlari yurtimizning qadimiy tarixini jahon xalqlariga tanishtirishda muhim o'rinni tutadi.

Mustaqillik yillarda Termiz shahrida Hakim at Termizi maqbarasi atrofida Termiz Davlat Universiteti Arxeologiya kafedrasи tamonidan olib borilgan arxeologik qazishma ishlari ahamiyatga molikdir. 1994-1996- yillarda maqbara atrofida O'zbek- Fransuz Baqtrya arxeologik guruhi ( rahbarlari t.f.n. T.Annayev. professor Pyer Lershi) tamonidan 5 ta g'orsimon inshoot topib o'rganildi.

Akademik A.Asqarov tamonidan 2018-2020 yillarda Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog'ida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida qishloq qabristoni hududidan zardushtiylik dini ibodatxonasi qoldiglari topib o'rganildi . O'zbekiston arxeologiyasi bugungi kunda millat manfaati, uning madaniy ma'naviy hayoti, mustaqillik g'oyalari talab istaklaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritmoqda va fanga xizmat qilmoqda .Bunga qadim tariximizni har tamonlama chuqur o'rganish uchun davlat rahbari va hukumatimiz tamonidan ko'rsatilayotgan g'amho'rlik va yaratib berilayotgan shart sharoitlar asosiy omil bo'lib xizmat etayotganini ta'kidlab o'tish lozim.Zero O'zbekiston Respublikasi 1- prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek" Mana shu mo'tabar yurtimizda yer osti xazinalaridan asrlar davomida sukunatga cho'mgan shahristonlarda

topilgan arxeologik ashyolar noyob tasvirlar, hali ochilmagan o'z sirlarini pinhon saqlab kelayotgan cho'lubiyobonlar hech shubhasiz bugun biz yashab kelayotgan tuproqda qadim qadim zamonlardan boshlab buyuk madaniyat va san'at rivojlanganini tasdiqlaydi “{4}”.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori “O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish to'g'risida” .”Xalq so'zi” 17 dekabr .1996 yil

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori “O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida” .”Xalq so'zi” 27 iyun 1998 yil.

2.Лунин.Б.В. Из истории русского востоведения и археологии в Туркестане. Т. 1958 с244

3.Shirinov T.Sh. Pardayev M.X. Mirazmahmudov J.K.” Akademik Yahyo G'ulomovning hayot yo'lli va ilmiy merosi” VMMT 29-son .Smarqand 1998 yil.

4.I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” “Ozbekiston” .Toshkent. 1998 yil